

BADIIY ASAR INSONNING TARBIYA KALITI.

Shorahmatova Shoira Sherzod qizi.

*Qo'qon davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti
fakulteti 305-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining zabardast namoyandalarining o'chmas asarlarining tarbiyaviy ahamiyati jumladan misol tariqasida buyuk bobomiz bo'lmish Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin" asarlaridagi tarbiyaviy jihatlar shu bilan birga O'tkir Xoshimovning "Ikki eshik orasi" tarbiyaviy ahamiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Navoiy, O'tkir Xoshimov, saxovat, bilm, odob, komillik.

Аннотация: В статье анализируются просветительские аспекты произведений выдающегося представителя узбекской классической литературы Алишера Навои, таких как «Махбуб ул-кулуб»,

«Хайрат ул-аброр», «Фарход и Ширин» и также Уткир Хошимов «Икки эшик ораси».

Ключевые слова: Навои, щедрость, доброта, порядочность, совершенство

Annotation: This article analyzes the educational aspects of the works of Alisher Navoi, a prominent representative of Uzbek classical literature, "Mahbub ul-qulub", "Khairat ul-abror", "Farhod and Shirin".

Keywords: Navoi, O'tkir Xoshimovning generosity, kindness, decency, O'tkir Xoshimovning "Ikki eshik orasi" perfection

Badiiy asar insonning tarbiya kaliti.

Kirish.

Inson dunyoga kelar ekan, har bir ota-ona o'z farzandining ilmi, bilimli el-yurt koriga yarovchi diniy, dunyoviy bilimlarning egasi bo'lgan, tarbiyaviy shaxs bo'lishini orzu qiladi va bor kuch-g'ayrati bilan harakat qiladi. Dunyoda turli millat vakillari o'zlarining faoliyatlari bilan tarbiyalarini namoyon etadilar.

Butun dunyo O'zbekiston yurt farzandlarining yonib turgan ko'zlariga havas bilan boqishadi.

**Havas qilar barcha bizlarga,
Sog'lom bola, go'zal qizlarga,
Eng buyugi tinchlik bizlarga,
Bunday diyor O'zbekistondir.**

Insonni tarbiyalashda bir necha omillar bor. Bu omillardan biri badiiy asarlardir.

Masalan: Bizning buyuk bobomiz Alisher Navoiy ko'plab asarlar qoldirganlar. Alisher Navoiy asarlarining tarbiyaviy ahamiyati juda ham katta, ular komil insonga shunday timsol berganlar.

"Komil inson bu- mukammal, axloqiy, ma'naviy, fazilatlarga ega bo'lgan shaxs timsolidir". Bunday insonni biz Alisher Navoiy qalamiga mansub "Xamsa" asarining ikkinchi dostoni bo'lmish "Farhod va Shirin" dagi Farhod obrazida ko'rishimiz mumkin.

.Navoiyga atab yozilgan kitoblar, she'rlar, qissalar ham kundan kunga oshmoqda. Mirkarim Osim o'z ijodini Navoiyga bag'ishlangan asarlardan boshlagan va uni "Astrobod" nomi bilan a tagan. Shundan keyin ijodkor Navoiyga atab boshqa janrdagi qissa va hikoyalarni yoza boshlagan. Biz yoshligimizdan sevib o'qiydigan Oybekning "Navoiy" romani, Mirkarim Osimning "Zulmat ichra nur", "Badarg'a", "Navoiyning xislatlari", "Ulug'bek va Navoiy" tarixiy qissa va hikoyalarida Navoiy siymosini yaxlit holda ko'rishimiz mumkin. Ushbu asar Navoiyning hayoti davomida ko'rgan-kechirganlarini chuqur tahlil qilib, xulosa chiqarilgan qimmatli asar hisoblanadi. Bu asari orqali shoir jamiyatni saxovatli bo'lish ga undaydi, saxovatsiz kishilarni esa qattiq qoralaydi. Saxovat insoniyat bog'ining borvar shajaridur, balki ul shajarning mufid samaridur. Odamiylik kishvarining bahri mavjvari, balki ul mavj bahrining zamin gavharidir.

Ikki eshik orasi“ – o‘zbek yozuvchisi O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub roman.

Adib qalamga olgan obrazlari oddiy odamlarning fazilatlari – mardligi, matonati, vatanparvarligi va sabr-bardoshi haqida so‘zlaydi. Tajribali yozuvchi roman hodisalarini teran o‘rgangani uchun har bir epizod o‘quvchini qalbiga jiddiy ta’sir qiladi.

Har bir asar insonni ma’naviy oziqlantiradi.

Yoshlarning suyuqli shoiri O‘tkir Xoshimovning “Ikki eshik orasi” asarida ham muallif sabrli bo‘lishni, isrofgarchilik qilmaslikni, har qanday yomonlikni yaxshi tomoni borligini hayotiy misollar orqali ko‘rsatib beradi.

Asarda tasvirlangan hayot manzaralari, insonlararo munosabatlar shuningdek, yozuvchining o‘ziga xos badiiy uslubi juda tabiiy hamda samimiyligi bilan ajralib turadi. Yetti qism, qirq yetti bobdan tarkib topgan roman kompozitsion qurilishi jihatidan ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. „Rost bilan yolg‘onning o‘rtasi — to‘rt enlik“, degan gap bor. Qiziq, nega endi oz emas, ko‘p emas, to‘rt enlik? Gap shundaki, ko‘z bilan quloqning

orasi — to‘rt enlik ekan. Eshitganingga emas, ko‘rganingga ishon . Maqsad — shu. Bu kitobdagi ko‘p odamlarni o‘zim ko‘rganman. Ko‘plari bilan gaplashganman.

Asarda rost so‘zlash naqllariga alohida urg‘u qaratilgan.

Xulosa

Badiiy asarlar hali hanuz o‘z dolzarbligini yo‘qotgan emas. Bugungi kunda yoshlar badiiy asarlarini sevib mutolaa qilib, hayotiy saboqlar, tegishli xulosalar olishmoqda.

Bu asarlar orqali halollik, adolat, mehnatsevarlik, sabr-toqat, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlar targ‘ib qilinadi. Asarlarda har bir qahramon insonlarni ezgulikka, xalqqa xizmat qilishga, rostgo‘ylik va vijdon bilan yashashga chorlaydi. Shu bois bu asarlar nafaqat badiiy, balki tarbiyaviy jihatdan ham bebaho merosdir. Biz yoshlar ham asarlarni sevib mutolaa qilish orqali kerakli ma‘naviy ozuqa olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent 2017 113-bet

2. A. Navoiy "Mahbub ul-qulub" Yoshlar nashriyot uyi Toshkent 2018 86-bet
3. A. Navoiy "Mahbub ul-qulub" Yoshlar nashriyot uyi Toshkent 2018 90-bet
"Yoshlar nashriyot uyi Toshkent 2018 86-bet
5. A. Navoiy "Hayrat ul-abror" .

4. O‘tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”.

5. Murabbiy jurnali.